



# Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

## Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



# Qoraqalpog‘iston Respublikasida kichik tadbirkorlik

## Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2025- yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **17,2** mingtani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **4,9** mingtaga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **11,0** birlikni tashkil qildi.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning yanvar-dekabr oylarida **3 102** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi.

**Yuridik shaxs** – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

## 2021-2025- yillar 1-yanvar holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), ming birlikda



## 2025- yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan sohalar bo‘yicha soni va ulushi



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Shahar va tumanlar bo'yicha 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

| 2024-y. |                               | 2025-y. |
|---------|-------------------------------|---------|
| 22 066  | Qoraqalpog'iston Respublikasi | 17 180  |
| 5 602   | Nukus sh.                     | 4 573   |
| 1 867   | Amudaryo                      | 1 463   |
| 1 863   | Beruniy                       | 1 526   |
| 357     | Bo'zatov                      | 302     |
| 653     | Qorao'zak                     | 399     |
| 736     | Kegeyli                       | 547     |
| 1 372   | Qo'ng'iro't                   | 985     |
| 588     | Qonli'ko'l                    | 464     |
| 604     | Mo'ynoq                       | 417     |
| 820     | Nukus                         | 649     |
| 654     | Taxiatosh                     | 519     |
| 451     | Taxtak'o'pir                  | 232     |
| 2 331   | To'rtko'l                     | 1 945   |
| 1 162   | Xo'jayli                      | 894     |
| 961     | Chimboy                       | 728     |
| 495     | Shumanay                      | 351     |
| 1 550   | Ellikqal'a                    | 1 186   |

2025- yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **17 180** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **3 102** tani tashkil etdi.

2025- yilning 1-yanvar holatiga ko'ra shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Nukus shahrida **4 573** tani yoki jamiga nisbatan **26,6** % ni tashkil etdi.




1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Shahar va tumanlar kesimida 2025- yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)\*

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2020-2025- yillar 1-yanvar holatiga, faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati birlikda



2024- yil yanvar-dekabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **11,0** birlikni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2023- yilga nisbatan **0,6** birlikka kamaygan.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko‘rsatkich Nukus tumanida **18,5** birlik, Bo‘zatov tumanida **16,4** birlik, Qonliko‘l tumanida **14,8** birlik, Mo‘ynoq tumanida **14,6** birlik va Qorao‘zak tumanida **14,1** birlikka yetdi.


\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda


## Eng yuqori ko‘rsatkich

Nukus tumani  
18,5 birlik.




## O‘rta ko‘rsatkich

Kegeyli tumani  
11,7 birlik.



## Eng past ko‘rsatkich

Taxiatosh tumani  
7,8 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko‘rsatkich Nukus tumanida **18,5** birlik, Bo‘zatov tumanida **16,4** birlik, Qonliko‘l tumanida **14,8** birlik, Mo‘ynoq tumanida **14,6** birlik, Qorao‘zak tumanida **14,1** birlik, Nukus shahrida **13,4** birlik, Kegeyli tumanida **11,7** birlik, Taxtako‘pir tumanida **11,6** birlik va Shumanay tumanida **11,1** birlik kuzatildi.

**Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik)** – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

**2025- yil 1-yanvar holatiga har 1000 aholiga nisbatan to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda**

Qorao‘zak tumani

14,1

Qonliko‘l tumani

14,8

Nukus tumani

18,5

Mo‘ynoq tumani

14,6

Bo‘zatov tumani

16,4


# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Shahar va tumanlar bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2023-y. yanvar-dekabr 2024-y.

|       |             |     |
|-------|-------------|-----|
| 1 259 | Nukus sh.   | 772 |
| 596   | Beruniy     | 342 |
| 493   | To'rtko'l   | 296 |
| 498   | Ellikqal'a  | 256 |
| 527   | Amudaryo    | 243 |
| 514   | Qo'ng'iro't | 182 |
| 313   | Xo'jayli    | 148 |
| 245   | Shumanay    | 125 |
| 307   | Chimboy     | 118 |
| 183   | Nukus       | 106 |
| 244   | Kegeyli     | 92  |
| 191   | Qonliko'l   | 91  |
| 168   | Mo'ynoq     | 88  |
| 169   | Taxiatosh   | 74  |
| 89    | Bo'zatov    | 72  |
| 224   | Qorao'zak   | 50  |
| 227   | Taxtako'pir | 47  |

2024- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha ulushi, % da




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Nukus shahri – **24,9** %, Beruniy tumani – **11,0** %, To'rtko'l tumani – **9,5** %, Ellikqal'a tumani – **8,3** %, Amudaryo tumani – **7,8** %, Qo'ng'iro't tumani – **5,9** %, Xo'jayli tumani – **4,8** % hissalariga to'g'ri keldi.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **1 155** ta, sanoatda **543** ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **398** ta yangidan tashkil etilgan.


Respublikaning tumanlar va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Nukus shahri **772** ta, Beruniy tumanida **342** ta, To'rtko'l **296** ta, Ellikqal'a tumanida **256** ta, Amudaryo tumanida **243** ta, Qo'ng'iro't tumanida **182** ta hamda Xo'jayli tumanida **148** ta yangidan tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-dekabr davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylar davomida jami **22 405** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida - **7 672** (yoki **34,3 %**) ta, xizmatlar sohasida - **4 814** (yoki **21,5 %**) ta, sanoat sohasida - **4 605** (yoki **20,6 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **4 083** (yoki **18,2 %**) ta va qurilish sohasida - **1 228** (yoki **5,5 %**) tani tashkil etgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-dekabr oylarida), % da

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **65,8** % ni tashkil qilib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **1,2** punktga kupaygan.



## 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari chakana savdoda **97,3** % ni, yo'lovchi aylanmasida **96,4** % ni, qishloq xo'jaligida **96,3** % ni, yo'lovchi tashishda **93,2** % ni, yuk aylanmasida **89,0** % ni, qurilishda **86,0** % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati





# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati

Hajmi, mlrd so'mda



Ulushi, % da



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati

Hajmi, mlrd so'mda



Ulushi, % da



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati


Hajmi, mlrd so'mda

Ulushi, % da



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024- yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **9 218,0** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Amudaryo (**1 556,2** mlrd. so'm), Beruniy (**914,4** mlrd. so'm), Nukus shahri (**892,3** mlrd. so'm), Ellikqal'a (**556,9** mlrd. so'm) va Qo'ng'iro't (**547,2** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Bo'zatov tumanida (**60,1** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega tumanlar, % da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so‘m

2024- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 37,5 % ni tashkil etdi.




2024- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bo‘zatov tumanida (100,0 %), Beruniy tumani (92,4 %), Shumanay tumani (92,0 %), Amudaryo tumani (74,8 %), Taxtako‘pir tumani (72,2 %), Ellikqal‘a tumani (72,0 %), Nukus tumani (69,1 %), Mo‘ynoq tumani (64,4 %), To‘rtko‘l tumani (54,5 %) va Xo‘jayli tumani (48,4 %), tashkil etdi.




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi




2024- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 7 353,1 milliard so‘mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 86,0 % ini tashkil etdi. O‘shir sur‘ati 2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 103,0 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Nukus shahri (1 682,2 mlrd. so‘m), To‘rtko‘l (575,3 mlrd. so‘m), Ellikqal‘a (422,2 mlrd. so‘m), Beruniy (395,0 mlrd. so‘m), Amudaryo (295,1 mlrd. so‘m) Xo‘jayli (290,6 mlrd. so‘m) Taxiatoosh (236,6 mlrd. so‘m) hamda tumanlarida qayd etildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2024- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **5 735,2** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **27,9 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **136,4 %** ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Nukus shahri (**1 544,5** mlrd. so'm), Qorao'zak (**1 151,9** mlrd. so'm), To'rtko'l (**538,2** mlrd. so'm), Beruniy (**351,7** mlrd. so'm), Ellikqal'a (**345,4** mlrd. so'm), Amudaryo (**300,7** mlrd. so'm), Chimboy (**298,1** mlrd. so'm) hamda Qo'ng'iro't (**296,0** mlrd. so'm), tumanlarida qayd etildi.

2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati


2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **17 297,5** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **96,3** % ini tashkil etdi. O‘sinh sur‘ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **106,0** % ni tashkil qildi.

**2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd.so‘mda**




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Amudaryo (**3 128,9** mlrd. so‘m), Beruniy (**2 242,6** mlrd. so‘m), Ellikqal’a (**1 953,8** mlrd. so‘m), To‘rtko‘l (**1 732,6** mlrd. so‘m), Chimboy (**1 317,2** mlrd. so‘m) hamda Qonliko‘l (**939,0** mlrd.so‘m) tumanlarida qayd etildi.

**2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi**




■ Hajmi, mlrd. so‘m ■ ulushi, %

**2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da**




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

## 2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **13 314,2** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **97,3 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **108,6 %** ni tashkil qildi.

## 2024- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Nukus shahri (**3 404,2** mlrd. so'm), To'rtko'l (**1 741,9** mlrd. so'm), Xo'jayli (**1 153,9** mlrd. so'm), Beruniy (**1 000,7** mlrd. so'm), Amudaryo (**884,8** mlrd. so'm), Qo'ng'iro't (**869,8** mlrd. so'm) va Ellikqal'a (**784,3** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

## 2019 va 2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, mlrd. so'm




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda



2024- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **21 202,2** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **73,6 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **114,4 %** ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Nukus shahri (**2 979,7** mlrd. so'm), To'rtko'l (**872,0** mlrd. so'm), Amudaryo (**610,7** mlrd. so'm), Xo'jayli (**594,4** mlrd. so'm), Beruniy (**587,2** mlrd. so'm), Qo'ng'iro't (**570,1** mlrd. so'm) va Ellikqal'a (**484,5** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori hajmga va ulushga ega bo'lgan turlari (yanvar-dekabr oylarida)

| <i>Hajmi, mlrd. so'mda</i> |  | <i>Ulushi, foizda</i> |
|----------------------------|--|-----------------------|
| 10 837,6                   | Yashash va ovqatlanish xizmatlari  | 51,1                  |
| 4 257,2                    | Savdo xizmatlari   | 20,1                  |
| 2 628,0                    | Transport xizmatlari   | 12,4                  |
| 730,7                      | Shaxsiy xizmatlar  | 3,4                   |
| 683,7                      | Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar                       | 3,2                   |
| 635,4                      | Boshqa xizmatlar   | 3,0                   |
| 416,2                      | Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar  | 2,0                   |
| 305,0                      | Ijara xizmatlari   | 1,4                   |
| 208,7                      | Ta'lim sohasidagi xizmatlar  | 1,0                   |
| 195,1                      | Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari  | 0,9                   |
| 155,8                      | Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar   | 0,7                   |
| 121,7                      | Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 0,6                   |
| 26,4                       | Moliyaviy xizmatlar  | 0,1                   |

Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi yashash va ovqatlanish xizmatlari **51,1** % (10 837,6 mlrd. so'm), savdo xizmatlarida – **20,1** % (4 257,2 mlrd. so'm), transport xizmatlarida – **12,4** % (2 628,0 mlrd. so'm) hamda shaxsiy xizmatlarda – **3,4** % (730,7 mlrd. so'm) ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **0,1** % (26,4 mlrd so'm) kuzatildi.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-dekabr oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, ming. AQSH dollar.




Ulushi, % da




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, ming. AQSH dollar.



Ulushi, % da




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi



■ hajmi, ming. AQSH dollar ■ ulushi, %


2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **144 682,1** ming. AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **34,4 %** ini tashkil etdi.



2024- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Taxtako'pir, Bo'zatov, Shumanay, Nukus tumani tumanlarida – **100,0 %**, Beruniy tumanida – **99,6 %**, Qorao'zak tumanida – **95,8 %**, Amudaryo tumanida – **94,6 %**, Ellikqal'a tumanida – **93,9 %** va Mo'ynoq tumanida – **83,4 %** ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Nukus shahrida – **2,5 %** ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **183 849,7** ming. AQSH dollarini yoki jami importning **69,7** % ini tashkil etdi.


2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da



2024- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Mo'ynoq, Bo'zatov, Amudaryo, Shumanay, Beruniy tumanlarida – **100,0** %, Nukus tumanida – **99,8** %, Ellikqal'a tumanida – **98,4** %, Qo'ng'iro't tumanida – **96,8** %, To'rtko'l tumanida – **94,8** %, hamda Qorao'zak tumanida – **73,3** %, ni tashkil etdi.




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




**Yuk  
tashishda**

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **91,6 %** ni tashkil etdi. 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,3 %** ni tashkil qildi.




**Yuk  
aylanmasida**

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **89,0 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,1 %** ni tashkil qildi.



**Yo'lovchi  
tashishda**

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **93,2 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,7 %** ni tashkil qildi.




**Yo'lovchi  
aylanmasida**

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,4 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,0 %** ni tashkil qildi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2024- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 801 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 318 (39,7 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 415 (51,8 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 68 (8,5 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 41,1 % (329 ta), xizmatlar sohasida – 28,5 % (228 ta), sanoatda – 13,2 % (106 ta), qurilishda – 9,1 % (73 ta) ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,1 % (65 ta) tashkil etdi.

2024- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2024- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi



Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Nukus shahri (215 ta), Ellikqal'a (78 ta), To'rtko'l (70 ta), Beruniy (69 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning IV choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi(joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar soni 2020-yilning IV choragida 275 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning IV choragiga kelib esa 318 taga yetgan yoki 2020- yilning IV choragiga nisbatan 43 taga kupaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar soni 2020- yilda 369 ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-dekabrida 415 ta yoki 46 taga kupaygan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2020- yilda 54 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich, 2024- yilga kelib 68 tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2020- yilga nisbatan 14 taga kupaygan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik



Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2020- yilning IV choragida **313** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning IV choragiga kelib esa **294** taga yetgan yoki 2020- yilga nisbatan **19** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2020- yilning IV choragida **329** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning IV choragida **388** ta yoki **59** taga kupaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni esa 2020- yilning IV choragida **52** ta bo'lgan bo'lsa, 2024- yilning IV choragiga kelib, bu ko'rsatkich **47** tani tashkil etib, **5** taga kamaygan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2020- yilning IV choragida **39,4** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **39,7** % ga yetgan yoki 2020- yilga nisbatan **0,3** % birlik kupaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2020- yilda **52,9** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning IV choragida **51,8** % yoki **1,1** % birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2020- yilda **7,7** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich, 2024- yilga kelib, bu ko'rsatkich **8,5** % ga yetgan yoki **0,8** % ga oshgan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillar IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2020- yilning IV choragida **44,8** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **36,7** % ga yetgan yoki 2020- yilning IV choragida nisbatan **8,1** % birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2020- yilning IV choragida **47,1** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida **48,4** % yoki **1,3** % birlikka kupaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2020- yilning IV choragida **7,4** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning IV choragiga kelib, bu ko'rsatkich **5,9** % yoki **1,5** % birlikka kamaygan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2024- yilning IV choragida oʻtkazilgan kuzatuv natijalariga koʻra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng koʻp ulushi qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida – **50,8** % ni, sanoatda – **46,3** % ni, savdoda – **38,0** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng koʻp ulushi qurilishda – **57,5** % ni, savdoda – **54,4** % ni, xizmatlar sohasida – **53,5** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng koʻp ulushi sanoatda – **10,4** % ni, xizmatlar sohasida – **9,7** % ni, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida – **9,2** % ni tashkil etdi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2024- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni yaxshilangan deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda – 54,7 % ni, savdoda – 43,5 % ni, xizmatlar sohasida – 42,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – 54,8 % ni, savdoda – 54,4 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 53,8 % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni yomonlashgan deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 4,7 % ni, qurilishda – 4,1 % ni, sanoatda – 3,8 % ni tashkil etdi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


|   | O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar |              |                          |
|---|---|--------------|--------------------------|
|   | Ko'payish (yaxshilanish*)                                       | o'zgarishsiz | Kamayish (yomonlashish*) |
| <b>Korxonaning umumiy aylanmasi</b>                                 | 39,4  | 50,5         | 10,1                     |
| <b>Band bo'lganlar soni</b>   | 12,5  | 80,1         | 7,5                      |
| <b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b> | 41,3  | 50,0         | 8,7                      |
| <b>Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarzi mablag'lari</b>       | 17,5  | 74,7         | 7,9                      |
| <b>Raqobat muhiti</b>   |   |              |                          |

|   | Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli |              |                          |
|---|-------------------------------------|--------------|--------------------------|
|   | Ko'payish (yaxshilanish*)           | o'zgarishsiz | kamayish (yomonlashish*) |
| <b>Korxonaning umumiy aylanmasi</b>                                 | 41,3                                | 54,9         | 3,8                      |
| <b>Band bo'lganlar soni</b>   | 17,7                                | 79,6         | 2,8                      |
| <b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b> | 41,3                                | 54,6         | 4,1                      |
| <b>Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarzi mablag'lari</b>       | 20,2                                | 76,3         | 3,5                      |
| <b>Raqobat muhiti</b>   | 44,2                                | 52,5         | 3,4                      |

\* Faqat raqobat muhitiga tegishli


# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



■ ko'payish (yaxshilanish\*)    ■ o'zgarishsiz    ■ kamayish (yomonlashish\*)

2024- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



■ ko'payish (yaxshilanish\*)    ■ o'zgarishsiz    ■ kamayish (yomonlashish\*)

\* Faqat raqobat muhitiga tegishli